

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEGMATOVA SHAXNOZA ADXAMOVNA

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATION MAHSULOTLAR
ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in
economic sciences**

Begmatova Shaxnoza Adxamovna

Tadbirkorlik subyektlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni
takomillashtirish.....3

Бегматова Шахноза Адхамовна

Совершенствование производства инновационной продукции в субъектах
предпринимательства27

Begmatova Shakhnoza Adkhamovna

Enhancement of innovative product manufacturing in entrepreneurial
enterprises53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BEGMATOVA SHAXNOZA ADXAMOVNA

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR
ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4608 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuc.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudov Nosir Maxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Suyunov Dilmurodov Xolmurodovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor


Yetakchi tashkilot:


**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "23" 12 kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49. Tel.: (99871) 239-01-49, 239-28-78. faks: (99871) 239-27-23, e-mail: info@tsuc.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1848 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49. Tel.: (99871) 239-01-49, 239-28-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil "9" 12 dagi 69 raqamli reyestr bayonnomasi).


G.K. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor


O.Dj. Djuraboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor


Sh.A. Allayorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish texnologik raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarga bozordagi talablarga tezkor moslashish, yangi bozor segmentlarini egallash va eksport salohiyatini kengaytirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan tejamkor foydalanish va iqtisodiy diversifikatsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Xorijiy tadqiqotlarda ta‘kidlanishicha, “innovatsiyaga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiy o‘shishning uzoq muddatli drayveri bo‘lib, mehnat unumdorligini oshirish hamda ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi”¹. Bundan ko‘rinadiki, tadbirkorlik subyektlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish jahon iqtisodiyotida barqaror o‘shish va global raqobatbardoshlikni ta‘minlashning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

Jahon miqyosida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ustuvor yo‘nalishlari, asosan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarmoyalarni ko‘paytirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik asosida texnologik markazlar tashkil etishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqotlarda startaplar va kichik innovatsion korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, ventur kapitali bozorini kengaytirish hamda transmilliy korporatsiyalar bilan hamkorlikda innovatsiyalarni joriy qilish kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ustuvor yo‘nalishlar qatorida raqamli texnologiyalardan, jumladan, sun‘iy intellekt, Big data va blokcheyndan foydalanish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish va mahsulotlarni global bozor talablariga moslashtirish yo‘llari ham o‘rganilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga, innovatsion g‘oya va texnologiyalarni joriy qilishga hamda mahalliy mahsulotlar sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlangan. Unda barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash (12-maqсад), qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish (55-maqсад), sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish (48-maqсад) kabi muhim vazifalar belgilab berilgan². Ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlash tadbirkorlik subyektlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish masalasini ilmiy jihatdan o‘rganishni, mavjud muammolarga

¹ OECD, Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation, 4th Edition, OECD Publishing, Paris/Eurostat, Luxembourg. <https://doi.org/10.1787/9789264304604-en>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, 11.09.2023-yil. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

zamonaviy yechimlar ishlab chiqishni, ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi hamda mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi. Tadbirkorlik subyektlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirishga oid tadqiqotlar nafaqat nazariy va amaliy ahamiyatga, balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga ham to'liq mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida"gi, 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid "Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonlarida, 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2024-yil 24-maydagi PQ-193-son "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlarida va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotda innovatsiyalarni samarali tatbiq etish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida xorijiy olimlardan Solow R.M., Shumpeter Y., Freeman C., John R.B., Kline S.J., Rosenberg N., Enkel E., Gassmann O., Chesbrough H., Heribert M., Christof B., Yook K., Panasenکو A., Kandeeva V.V., Saiyensus M. lar³ ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

³ Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth//Quarterly Journal of Economics, 1956, February, pp.65-94; Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: - Прогресс, 1982. 386 с.; Freeman C. The National System of Innovation in Historical Perspective // Cambridge Journal of Economics, No. 19, 1995, pp. 5–24; John R. Bryson. Entrepreneurship, Geography of // International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences (Second Edition). 2015, Pages 686-691; Kline S.J., Rosenberg N. An overview of innovation // The positive sum strategy: Harnessing technology for economic growth / edited by R. Landau and N. Rosenberg. <https://www.nap.edu/read/612/chapter/18>; Schumpeter J. Theoriye der wirtschaftlichen Entwicklung – Berlin: Duncker & Humblot, 1912. 456 r.; Enkel E., Gassmann O., Chesbrough H. Open R& D and open innovation: exploring the phenomenon// R&D Management. – 2009. – Vol. 39. - № 4. – P. 311- 316.; Heribert M., Christof B. Marketing Grundlagen marktorientierter Unternehmensführung. 2012, r. 396.; Yook K. Estimating EVA using Compustat PC Plus // Financial Practice and Education. 1999. Fall — Winter. P. 33–37.; Panasenکو A. et al. Improving the innovative development mechanism of the trade sector // Journal of Advanced Pharmacy Education & Research | Jan-Mar 2021 | Vol 11 | Issue 1, p. 143. Kandeeva V.V. Formation Mechanism of Innovation and Investment Activities of Industrial Enterprise // Theory and practical aspects of economics and industrial enterprises management. No3 (19), 2015. p. 80.; Saiyensus M. Analysis of innovative sustainability of socio-economic systems // Socioeconomic Research Bulletin. – 2014. – Iss. 4 (55). p. 109-114.

Shuningdek, mazkur tadqiqot mavzusi bo'yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan Gasanov Э.А., Кирьяков А.Г., Максимов В.А., Кузнецова И., Барышева А.В., Балдин Х.В., Галдицкая С.И., Ищенко М.М., Передеряев И.И., Азгальдов Г.Г., Костин А.В., Гостева С., Грачева Г., Hauschildt J., Salomo S., Kim W.C., Mauborgne R., Акбердина В.В., Байкова Э., Санто Б., Сазонов Б.В., Биткулова З.С., Дебердиева Е.М., Вечкасова М.В., Жихарев К.Л., Василенок В.Л., Бразевич Д.С. lar⁴ ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish asosida mahsulotlarni diversifikatsiyalash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarida Gulyamov S.S., Abduraxmanova G.K., Gafurov U.V., Maxmudov N.M., Suyunov D.X., Ikramov M.A., Tursunov B.O., Sharifxo'jayev SH.O., Eshov M.P., Qoriyeva Yo.K., Qosimova D.S., Tursunov I.E., Yoziyev G'L., To'ychiyev A.G', Abdullayev Z.A., Akobirova D., Shakirova F.B., Salimov SH.B. kabi olimlar⁵ ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan.

⁴ Гасанов Э.А. Инновационный вектор развития информационной экономики // Инновации. 2014. № 5. С. 10–14; Кирьяков А.Г., Максимов В.А. Основы инновационного предпринимательства. – М.: Феникс, 2002. – С. 160.; Кузнецова И., Гостева С., Грачева Г. Методология и практика статистического измерения инновационной деятельности в экономике России: современные тенденции.//Вопросы статистики, №5, 2008.-с.35-45; Барышева А.В., Балдин Х.В., Галдицкая С.И., Ищенко М.М., Передеряев И.И. Инновации: учебное пособие.-М.: ИТК «Дашков и К», 2007.-382 с.; Азгальдов Г.Г., Костин А.В. К вопросу о термине «инновация». – В кн.: Труды лаборатории В.Н.Лившица. – М.: Изд-ие ЦЭМИ РАН, 2009.-29-33 с.; Hauschildt J., Salomo S. Innovatsion menagement. Vahlen ISBN 978-3-8006-3655-62011.- 410 s.; Kim W.C., Mauborgne R. Moviy okean strategiyasi; Garvard Business Reviyew Paperback Seriyes; Garvard Business School Press: Brighton, Buyuk Britaniya. 2004.; Акбердина В.В. Трансформация промышленного комплекса России в условиях цифровизации экономики / Journal of new economy. – 2018. – Т. 19. – №. 3. – С. 82-99.; Байкова Э. Опыт развития креативных индустрий за рубежом. Экономика и управление: Научно-практический журнал, № 1 (163), 2022.; Санто Б. Инновация как средство экономического развития: пер с венг. Б. Санто; ред. Б.В. Сазонов. – М.: Прогресс, 1990. – 296 с.; Биткулова З.С. Особенности добавленной стоимости в оценке инновационного развития предприятий // Вестник Челябинского государственного университета. 2013. № 15 (306). Экономика. Вып. 41. с. 119.; Дебердиева Е.М., Вечкасова М.В. Меры поддержки развития производств с высокой добавленной стоимостью // «Инновации и инвестиции». № 5. 2021. ст. 87-89; Жихарев К.Л. Проектное управление развитием региональной инновационной системы. - М.: «Социум», 2011. -С. 207.; Василенок В.Л., Бразевич Д.С. Малое предпринимательство как фактор развития инновационной экономики. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 1, 2018. с. 154.

⁵ Gulyamov S.S. Pandemiya oqibatlarini bartaraf etishda innovatsion iqtisodiyotning ahamiyati. “Moliya va bank ishi” (elektron ilmiy jurnal). Pandemiya va iqtisodiyot. (maxsus son) №2. 2020.; Abduraxmanova G.K. “Inson kapitali” Darslik. Toshkent, 2022.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Diss. i.f.d. – Т. 2017.; Maxmudov N.M. Investitsiyalardan samarali foydalanish asosida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari / “Samarqand viloyatini innovatsion rivojlantirish: muammo va yechimlar” mavzusidagi konf. materiallari to'plami. S.: SamDU, 2020, 198-200 b.; Suyunov D.X. va boshq., Scientific approaches to the analysis of the experience of foreign countries on the development of entrepreneurship in the service field. “Wire Insights: Journal of Innovation Insights”. №1. 2023. 1-7 b. Ikramov M.A. va boshq. Некоторые вопросы государственного регламента инновационного процесса: зарубежный опыт и практика Узбекистана. // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. 2013, 198-205 b.; Tursunov B.O. va boshq. Innovative development of Uzbekistan agroindustrial complex. // International Scientific and Practical Conference “Digital agriculture-development strategy” (ISPC 2019). 2019, 334-337 b.; Sharifxo'jayev Sh.O. Mamlakatimizda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishning zaruriyati // “Iqtisod va moliya” / 2018, 5. 61-66 b.; Eshov M.P. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari. Monografiya. T, 2017. 80 b.; Qoriyeva Yo.K. Globallashuv jarayonida xalqaro transport logistik tizimi faoliyatining samaradorligi. – T.: TDIU, 2003. – 147b.; Qosimova D.S., Sanoat korxonalarida mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning yo'nalishlari. “Архив научных исследований”, №11. 2020.; Tursunov I.E. va boshq., Инновационные подходы развития предпринимательства. “International journal of innovative technologies in economy”, № 5 (17). 2018. 61-64 b.; Yoziyev G'L. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat innovatsion rivojidagi salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari (Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari tajribasi misolida). Diss. (PhD). – T., 2019.; To'ychiyev A.G'. Kichik biznesga

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish bo'yicha muammolar atroflicha ko'rib chiqilgan. Ammo, aynan tadbirkorlik subyektlarida yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan, shu boisdan mazkur yo'nalish tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik subyektlarida yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik asosida yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning nazariy asoslari hamda uning afzalliklari va imkoniyatlarini yoritib berish;

tadbirkorlik faoliyatida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda kreativlikning o'rnini ochib berish va uning zamonaviy yo'nalishlaridan samarali foydalanish yo'llarini taklif etish;

qiymat matritsasi asosida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish orqali yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

mahsulotga yuqori qiymat qo'shish strategiyalari va modellarini tadqiq etish hamda O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha islohotlarni tahlil qilgan holda takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan innovatsiyalar tarkibi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi omillarni o'rganish hamda ularning ta'sirini ekonometrik modellashtirish asosida baholash;

yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning mavjud mexanizmlarini tadqiq etish va ularni takomillashtirish;

ekonometrik modellar asosida innovatsion tadbirkorlik bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarning prognoz senariylarini va uni yanada rivojlantirish borasida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari va korxonalar faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti tadbirkorlik subyektlarida yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardan iborat.

innovatsiyalar transferini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish. Dis. (PhD). – T., 2020; Abdullayev Z.A. Kichik biznesning innovatsion faoliyati hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish omili sifatida // InScience, 1(01) 2023, 46-49 b.; Akobirova D., “Стратегия инновационного развития промышленности Республики Узбекистан”. T.: 2013 год.; Shakirova F.B. Innovatsiyalar asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish: Monografiya. – T.: Complex Print, 2018. –174 b.; Salimov Sh.B. Kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish. PhD diss. avtoreferati, T.: TDIU, 2022, 54 b.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, so‘rovnoma, taqqoslama tahlil, jadval, grafik, statistik tahlil va sintez, statistik kuzatuv, dinamika qatorlari, prognozlash, iqtisodiy-matematik usullar va ekonometrik modellashtirish kabi bir qator usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “kreativ fikrlash” tushunchasining iqtisodiy mazmuni tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda raqobat ustunligini ta‘minlashda mavjud resurslar, ma‘lumotlar va vaziyatlarga noan‘anaviy, innovatsion va samarali yondashish orqali yangi qiymat yarata olishga qaratilgan intellektual qobiliyatlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

tadbirkorlik faoliyatida xarajatlarni optimallashtirish, ko‘lam samarasi va jadal innovatsion faoliyatni uyg‘unlashtirish asosida mahsulotlarga yuqori qiymat qo‘shishni ta‘minlaydigan “qiymat–murakkablik”, “qiymat–xavf” va “qiymat–harakat” matritsalarini asosida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish orqali mahsulotning umumiy qiymat indeksini oshirish taklifi asoslangan;

tadbirkorlik asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni “tahliliy”, “rejalashtirish”, “joriy etish” va “nazorat” tamoyillariga asoslangan, innovatsionlik koeffitsiyenti, xarajatlar samaradorligi indeksi, bozorga chiqish tezligi va tijoratlashtirish darajasini qamrab oluvchi kompleks rivojlantirish orqali tadbirkorlik subyektlarida innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish asoslangan;

O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlik sohasining asosiy ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liqligining eksponensial trend modeli asosida 2030 yilgacha mo‘ljallangan pessimistik, dinamik va optimistik prognoz senariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahsulotga qiymat qo‘shish strategiyalari, modellari va respublikada innovatsion tadbirkorlik rivojlantirish bo‘yicha islohotlarni tadqiq etish orqali mahsulotga yuqori qiymat qo‘shish bo‘yicha kontseptual model taklif etilgan;

yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga qiymat matritsasi asosida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish orqali erishish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan innovatsiyalar tarkibi va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga omillar ta‘siri so‘rovnoma natijalari va ekonometrik modellar asosida baholangan;

xorijiy tajribalarni o‘rganish natijasida yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish mexanizmi takomillashtirilgan;

ekonometrik modellar asosida innovatsion tadbirkorlik bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarning prognoz senariylari ishlab chiqilgan;

yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarning yechimlari bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari va xulosalarining ishonchliligi tadqiqotchi tomonidan dissertatsiya ishi uning mavzusi bo‘yicha

xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlari asosida tayyorlanganligi hamda foydalanilgan ma'lumotlar ishonchli rasmiy manbalardan olinganligi, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadbirkorlik faoliyatida yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha meyoriy-huquqiy asoslaridan, innovatsion tadbirkorlik va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot (xizmat)lar ishlab chiqarilishini yanada rivojlantirish bo'yicha xulosalardan kelgusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni tadbirkorlik faoliyatida yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga, innovatsion tadbirkorlik asosida mahsulotlarga yuqori qo'shilgan qiymat qo'shishning ustuvor jihatlari va ilmiy metodologik yondoshuvlari bilan bog'liq muammolarning ilmiy jihatdan yechimlari hamda tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirish bo'yicha istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadbirkorlik subyektlarida yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "kreativ fikrlash" tushunchasining iqtisodiy mazmuni tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda raqobat ustunligini ta'minlashda mavjud resurslar, ma'lumotlar va vaziyatlarga noan'anaviy, innovatsion va samarali yondashish orqali yangi qiymat yarata olishga qaratilgan intellektual qobiliyatlar majmui nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Kreativ fikrlash" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagi 391-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalar o'z-o'zini realizatsiya qilishi, ichki imkoniyatlarini aniqlab, qobiliyatini namoyon etishi hamda zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga undashning turli xil uslublari hamda usullarini o'zlashtirish yuzasidan kengaytirilgan nazariy bilimlar hosil qilish imkoni yaratilgan;

tadbirkorlik faoliyatida xarajatlarni optimallashtirish, ko'lam samarasi va jadal innovatsion faoliyatni uyg'unlashtirish asosida mahsulotlarga yuqori qiymat qo'shishni ta'minlaydigan "qiymat-murakkablik", "qiymat-xavf" va "qiymat-harakat" matritsalarini asosida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish orqali mahsulotning umumiy qiymat indeksini oshirish bo'yicha taklif O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 16-oktabrdagi 05-33-11786-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida yuqori qiymatli innovatsion mahsulot

ustuvorligini oshirish orqali samaradorlik va muvaffaqiyatni yuqori darajaga olib chiqilishiga erishilgan;

tadbirkorlik asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni “tahliliy”, “rejalashtirish”, “joriy etish” va “nazorat” tamoyillariga asoslangan, innovatsionlik koeffitsiyenti, xarajatlar samaradorligi indeksi, bozorga chiqish tezligi va tijoratlashtirish darajasini qamrab oluvchi kompleks rivojlantirish orqali tadbirkorlik subyektlarida innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish taklifi O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 16-oktabrdagi 05-33-11786-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida tadbirkorlik faoliyatini strategik innovatsion rivojlantirish modelini yaratish va uni amalga oshirish natijalarini monitoring qilish tizimining takomillashuviga olib kelgan;

O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlik sohasining asosiy ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liqligining eksponensial trend modeli asosida 2030 yilgacha ishlab chiqilgan pessimistik, dinamik va optimistik prognoz senariylari O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 16-oktabrdagi 05-33-11786-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida tadbirkorlik sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishning chora-tadbirlari va prognozlari asosida uzoq muddatli davrdagi istiqbol ko‘rsatkichlarning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, yakkamualliflikda “Kreativ fikrlash” fanidan darslik, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta maqola, mahalliy jurnallarda 10 ta, shuningdek, 12 ta respublika va xalqaro konferensiyalar to‘plamida tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishning nazariy-amaliy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlik asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishning nazariy jihatlarini ochib

berilgan, tadbirkorlik faoliyatida mahsulotga yuqori qiymat qo'shishning afzalliklari, turlari va imkoniyatlari hamda mahsulotga yuqori qiymat qo'shish strategiyalarining iqtisodiy talqini va modellari yoritib berilgan.


Tadbirkorlik nazariyalari evolyutsiyasi va empirik tadqiqotlar tahlili o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish zarurligi va innovatsiyalarning markaziy rolini e'tirof etadi. Ushbu konsepsiya tadbirkorlar har doim o'z korxonalarida o'sishni yanada rag'batlantirishning innovatsion usullarini qo'llashlari zarurligini isbotlaydi. Qiymat innovatsiyalarni joriy etish nafaqat bugungi raqobat sharoitida muvaffaqiyatga erishish, balki biznesning uzoq muddatli salomatligi va daromadlilikini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qiymatga yo'naltirilgan innovatsion biznes modelida an'anaviy strategiya inkor etilib, biznes yuritishning yangi usullarini tadbiriq etiladi hamda bozor qoidalari bo'yicha raqobatlashish o'rniga, yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarib, yangi talab shakllantiriladi.

1-jadval

Qiymatga yo'naltirilgan innovatsion biznes modeli va an'anaviy strategiyalarning farqli jihatlari⁶

An'anaviy strategiya	Qiymat strategiyasi
Mavjud bozor maydonida kurash	Raqobatchilardan holi bozor segmentlarini kashf etish
Raqobatchilar ustidan qozonilgan g'alaba	Raqobatchilarni chetlab o'tish
Mavjud talabdan foydalanish	Yangi talabni shakllantirish bilan bozorni egallash
"Qiymat-xarajat" kelishuvi asosida faoliyat yuritish	"Qiymat-xarajat" kelishuvini inkor etish
Raqobatchilardan farqlanish yoki kam xarajatlarga yo'naltirilgan strategik tanlovga qarab korxona faoliyatining butun tizimini ko'rish	Bir vaqtning o'zida ham raqobatchilardan farqlanish, ham xarajatlarni kamaytirish strategiyasiga muvofiq korxona faoliyatining butun tizimini ko'rish

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda biznes modelini raqamlashtirish orqali innovatsion biznes modelini shakllantirish quyidagi rasm shaklida ifodalash mumkin (1-rasm).




1-rasm. Korxonalarda innovatsion boshqaruvini tashkil etish modeli⁷

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁷ Muallif ishlanmasi.

Tadbirkorlik faoliyatida mahsulotga yuqori qiymat qo'shishning bir qator turlari mavjud bo'lib, yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ko'plab afzalliklarga ega va ular qo'shimcha imkoniyatlar yaratishga qodir. Fikrimizcha, mahsulotga yuqori qiymat qo'shish quyidagi strategiyalar ketma-ketligida, jumladan, ichki faoliyatni tartiblash, yuqori sifatni taklif qilish, yetkazib berish tezligini oshirish, qo'shimcha ekspert maslahatini berish, mahsulot dizayni va qadoqlanishini yaxshilash, har bir mijoz bilan o'zaro munosabatlarni soddalashtirish, mijozlarga qo'shimcha xizmat ko'rsatish, inqirozga qarshi tayyorgarlik bosqichlarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Xarajatlarni optimallashtirish yoki ko'lam samarasiga erishish ham qo'shimcha qiymatga ega bo'lishga imkon bersada, bu maksimal foyda olishni anglatmaydi. Faoliyatni innovatsiyalar orqali yo'lga qo'yish asosida mahsulotlarga yuqori qiymat qo'shish foydani yanada maksimal bo'lishiga olib keladi. Ushbu jarayonni quyidagi tarkibiy tuzilishga ega konseptual model sifatida ifodalash mumkin (2-rasm).



2-rasm. Tadbirkorlik faoliyatida mahsulotlarga yuqori qiymat qo'shishning konseptual modeli⁸

⁸ Muallif ishlanmasi.

Yuqorida taklif etilayotgan “Tadbirkorlik faoliyatida mahsulotlarga yuqori qiymat qo‘shishning konseptual modeli”ning afzalligi shundaki, u tadbirkorlik faoliyatida qo‘shilgan qiymat yaratishning yo‘nalishlari, amalga oshirish jarayonlari, ta’sir etuvchi omillar, natijalar (samaralar) va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda qiymatga yo‘naltirilgan innovatsion biznes strategiyasi hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish asosida jadal iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanishi va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishning hozirgi holati va tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizda tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga doir iqtisodiy islohotlar, sohada amalga oshirilayotgan innovatsiyalar tarkibi tahlil qilinib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga omillar ta’siri baholangan. Shuningdek, qiymat matritsasi asosida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish usullari takomillashtirilgan.

Shundan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda ham 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish” nomli 51-maqsadida “Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xom ashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 mlrd. so‘mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish” kabi vazifalar belgilangan. Shu bilan birga “Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish” nomli 52-maqsadida quyidagi vazifalar belgilangan “Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha O‘zbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish”⁹.

2-jadval

O‘zbekistonning global innovatsiya indeksi va subindekslaridagi ko‘rsatkichlari¹⁰


Yillar	Global innovatsiya indeksi	Innovatsiyalarga investitsiyalar	Innovatsiyalar natijalari
2020	93	81	118
2021	86	75	100
2022	82	68	91
2023	82	72	88
2024	83	71	91

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

¹⁰ Global innovatsiya indeksi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Butun jahon intellektual mulk tashkilotining rasmiy sayti, www.wipo.int

GIIga O‘zbekiston 2015-yilda ilk bor kiritilib, 130 dan ortiq davlatlar ichida 122-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020-yilda 93-o‘rinni, 2022-yilda 82-o‘rinni egallagan. Ammo, GII 2024 natijalari bo‘yicha O‘zbekiston 83-o‘ringa tushgan.

O‘tgan davrda fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi natijasida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha jami 209 ta loyiha amalga oshirildi. Xususan, geologiya, konchilik va metallurgiya sohasida 56 ta, yengil sanoat tarmog‘ida 30 ta, energetika sanoatida 27 ta, kimyo va neft-gaz sanoatida 22 ta, qishloq xo‘jaligida 11 ta, transport sohasida 28 ta va boshqa sohalarda 35 ta innovatsion loyihalar amalga oshirilgan.



3-rasm. O‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni¹¹, birlikda


Keyingi davrda mamlakatimizda innovatsiyalarning yangiligi bo‘yicha tashkilot va ichki bozor uchun yangi bo‘lgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi hamda ularni ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subektlari soni ortib bormoqda. Xususan, 2023-yil yakunlari bo‘yicha respublikada o‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 5026 tani tashkil etib, ular tomonidan 2023-yilda respublika bo‘yicha o‘z kuchi bilan bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmi 55746,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, bu 2021-yilga nisbatan 2,2 martaga hamda 2019-yilga nisbatan esa 2,1 martaga oshgan.

2023-yil mobaynida innovatsiyalarga turli moliyalashtirish manbalari hisobidan jami 10616,5 mlrd. so‘m mablag‘ sarflangan. Xususan, 6464,3 mlrd. so‘m korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari, 1242,3 mlrd. so‘m chet el investitsiyalari, 1796,1 mlrd. so‘m tijorat banklarining kreditlari, 535,0 mlrd. so‘m byudjet mablag‘lari, 522,9 mlrd. so‘m maqsadli byudjetdan tashqari fond mablag‘lari hamda 55,9 mlrd. so‘m boshqa mablag‘lar shular jumlasidandir.

O‘z kuchi bilan bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi o‘rganilganda eng yuqori ulush ishlab chiqarish sanoati (50,38 % yoki 28087,3 mlrd. so‘m) hamda axborot va aloqa (41,4 % yoki 23076,4 mlrd. so‘m) tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, eng past ulush ta‘lim (0,35 % yoki 192,8 mlrd. so‘m), tashish va saqlash (0,18 % yoki 99,4 mlrd. so‘m), kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat (0,17 %

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yoki 95,9 mlrd. so‘m), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish (0,11 % yoki 62,4 mlrd. so‘m), ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar (0,08 % yoki 46,2 mlrd. so‘m) hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (0,03 % yoki 18,5 mlrd. so‘m) sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan (4-rasm).



4-rasm. O‘z kuchi bilan bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi¹², mlrd. so‘m

Tahlillar asosida mamlakatimizda tadbirkorlik sohasida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar bilan bog‘liq asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar statistik usullar yordamida tahlil qilinib, iqtisodiy samara va samaradorlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish tendensiyalari baholandi. Shuningdek, yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlarni yaratishga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Bunda natijaviy omil “Yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar” (y) ga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida ilmiy-texnik salohiyat (x_1), moliyaviy resurslar (x_2), infratuzilma va texnologik baza (x_3), kadrlar salohiyati (x_4), qonunchilik va institusional muhit (x_5), bozor talabi va raqobat muhiti (x_6) belgilab, ularning ta’siri “Ordered logistic regression” modeli orqali baholandi.

$$y_i = 0,132x_1 + 0,463x_2 + 0,436x_3 - 0,319x_4 - 0,201x_5 - 0,19x_6 + 2,808$$

$$(R^2 = 0,71; F_{his} = 75,8 > F_{jad} = 3,09; (3,3 \leq t_{\alpha_n} \leq 6,6) > t_{jad} = 2,57; AIC = 267,3; BIC = 290,7)$$

Natijalarga ko‘ra, mamlakatimizda yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishiga mavjud ilmiy-texnik salohiyat, moliyaviy resurslar hamda infratuzilma va texnologik bazalar ijobiy (+) ta’sirga ega bo‘lsa, kadrlar salohiyati, qonunchilik va institusional muhit hamda bozor talabi va raqobat muhiti salbiy (-) ta’sirga ega ekanligi aniqlandi.

Fikrimizcha, yuqori qo‘shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga omillarning salbiy (-) ta’sirini bartaraf etish yoki yumshatish uchun quyidagilarni e’tiborga olish lozim:

kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish – oliy ta’lim muassasalari va real sektor korxonalari o‘rtasida ilmiy-tadqiqot faoliyati hamkorligini samarali tashkil etish, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan doimiy shug‘ullanishga yetarli shart-sharoitlar yaratish va rag‘batlantirish;

¹² O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yuqori malakali mutaxassislar uchun korxonalar talabini shakllantirish hamda kadrlar malakasi va salohiyatini oshirish tizimining samarali tashkil etish;


innovatsion faoliyatni tartibga solish va rag'batlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslarining barqarorligi va ustuvorligini ta'minlash, ya'ni institutsional muhitni yaxshilash;

bozor talabidan kelib chiqib, yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash;

monopoliyaga qarshi kurashish, sog'lom raqobat muhitini yaratish, ichki va tashqi bozordagi talab hamda iste'molchi ehtiyojlaridan kelib chiqib, yangi innovatsiyalarni joriy etishdagi tashabbuskor tadbirkorlarga imkoniyatlar yaratish.

Tadbirkor qo'shadigan qiymat uning foydasiga to'g'ri proporsional, ya'ni tadbirkor mahsulot yoki xizmatga qancha yuqori qiymat qo'shsa, shuncha yuqori narx belgilash imkoniyati vujudga keladi va bu, o'z navbatida, foyda marjasining maksimallashtirishga ijobiy ta'sir etadi. Yuqori qiymat va arzon narxning paradoksal kombinatsiyasini birlashtirish oson emas, lekin bunga erishish yuqori foyda keltiradigan strategik harakatdir.

1. Qiymat va murakkablik matritsasi yordamida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish. Bu matritsada mahsulotning qiymati (moliyaviy va emotsional) va murakkabligi (texnologik, ishlab chiqarish jarayoni) o'rtasidagi bog'liqlikni vizual tasvirlaydigan strategik tahlil vositadir.




5-rasm. Qiymat va murakkablik matritsasi¹³

Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishda qiymat va murakkablik matritsasi minimal sarflar bilan maksimal qiymat berishga urg'u beradi hamda mahsulot xususiyatlarini kutilgan biznes qiymati va amalga oshirish murakkabligi bo'yicha tasniflaydi. Ushbu matritsa asosida yuqori qiymatli, ammo murakkab mahsulotlarni yaratish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish mumkin.

2. Qiymat-xavf matritsasi yordamida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish. Hech bir biznes o'zini xavf-xatardan to'liq izolyatsiya qila olmaydi, biroq, qiymat-xavf matritsasi yordamida mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi mutlaqo yangi g'oyalar va tashabbuslarning potensial xavflarini toifalarga ajratish, rejalashtirish, mahsulotni ishlab chiqarishdagi risklarni minimallashtirish mumkin.


¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

Taklif etilayotgan qiymat-xavf matritsasi nafaqat mahsulot xususiyatlarini biznesga potensial ta'siriga ko'ra, balki ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish biznesga olib keladigan umumiy xavf bo'yicha tasniflaydi.



6-rasm. Qiymat va xavf matritsasi¹⁴

3. Qiymat va harakat matritsasi yordamida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish. Qiymat va harakat ustuvorlik matritsasi vazifalarning dolzarb va muhimligiga qarab ustuvorlashtirishning samarali vositasi bo'lib, asosli qarorlar qabul qilish, faoliyatni boshqarish va samaradorlikni oshirish, mahsulotning qiymati va uni bozorda joriy etish uchun kerak bo'lgan harakatlar (marketing, reklama, distributsiya) o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish, marketing strategiyasini belgilashga yordam beradigan strategik asosni taqdim etadi.



7-rasm. Qiymat va harakat matritsasi¹⁵

Mahsulot ustuvorligi matritsasi tadbirkor e'tiborini minimal harakat bilan eng yuqori qiymatni taklif etadigan loyihalarga qaratishni ta'minlaydi va mahsulot muvaffaqiyatiga sezilarli hissa qo'shmaydigan past ustuvor xususiyatlarga ega bo'lgan harakatlarni bekor qilish orqali xarajatlarni tejash, daromadni maksimal darajada oshirish hamda mahsulotni ishlab chiqish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

Umumiy qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatida xarajatlarni optimallashtirish, ko‘lam samarasi va jadal innovatsion faoliyatni uyg‘unlashtirish asosida mahsulotlarga yuqori qiymat qo‘shishni ta‘minlaydigan “qiymat–murakkablik”, “qiymat–xavf” va “qiymat–harakat” matritsalarini asosida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish orqali mahsulotning umumiy qiymat indeksini oshirish mumkin.

3-jadval

Qiymat va harakat matritsasi yordamida mahsulot xususiyatlariga ustuvorlik berish¹⁶

Vazifa/faoliyat	Tavsif	Tahlil	Natijalar	Misollar
Yuqori qiymat, kam harakat	Muhim ahamiyatga ega va minimal harakat talab qilinadigan vazifalar.	Bu vazifalar kam resurs va investitsiyalar bilan yuqori qiymat taklif qiladi.	Imtiyozlarni maksimal darajada oshirish uchun ushbu vazifalarni tezkor bajarish va birinchi o‘ringa qo‘yish kerak.	Jarayonni tezkor takomillashtirish va optimallashtirish.
Yuqori qiymat, yuqori harakat	Muhim ahamiyatga ega, ammo katta kuch talab qiladigan vazifalar.	Bu vazifalar yuqori qiymat taklif qiladi, lekin ehtiyotkorlik bilan rejalashtirishni talab etadi.	Resurslarni oqilona taqsimlash, diqqat bilan rejalashtirish va taraqqiyotni diqqat bilan kuzatib borish kerak.	Yangi mahsulotni ishlab chiqarish, keng qamrovli bozor tadqiqotlarini o‘tkazish.
Past qiymat, kam harakat	Cheklangan qiymat va minimal harakat talab qilinadigan vazifalar.	Bu vazifalar past qiymatga ega, lekin katta resurslar sarflamaydi.	Agar ular boshqa ustuvorliklarga mos kelsa, bu vazifalarni bajarishni o‘ylab ko‘rish kerak.	Hujjatlarni muntazam rasmiylashtirish, ofis materiallarini tayyorlash.
Past qiymat, yuqori harakat	Cheklangan qiymatga ega va katta kuch talab qiladigan vazifalar.	Bu vazifalar minimal daromad keltiradi va bu yuqori harakatlarga arziyasligi mumkin.	Ushbu vazifalar bajarishga arziydimi yoki yo‘qligini izchil baholash kerak.	Kichik imtiyozlar uchun uzoq ma‘muriy jarayonlar bilan shug‘ullanish.

Tadqiqot ob‘yekti bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazish, uning natijalarini iqtisodiy tahlil qilib, ilmiy va analitik izohlash - tadbirkorlik subyektlarining innovatsion mahsulot ishlab chiqarishdagi tajribasi, qiyinchiliklari, imkoniyatlari va ehtiyojlarini aniqlash hamda ularni yaxshilash uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

So‘rovnomadan olingan ma‘lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, 33,3 foiz korxonada innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yilgan (yangi texnologiya 42,1 foiz, yangi dizayn yoki funktsionallik 12,3 foiz, yangi ishlab chiqarish jarayoni 17,5 foiz, mahsulotga qo‘shimcha xizmatlar 28,1 foiz) hamda 66,7 foiz korxonada esa innovatsion mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish uchun ilmiy-tadqiqot bazasi va malakali mutaxassislar muhim. Hududiy korxonalarda bu resurslar yetarli emas.

Ma‘lumki, korxonalarning ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda innovatsion mahsulotlar eksporti va ichki bozordagi raqobat kuchli bo‘ladi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni ilmiy-tadqiqot muassasalari orqali joriy etish tendensiyasi mavjud, lekin bu yo‘nalish hali to‘liq rivojlanmagan (tahlillar 42,6 foiz tadbirkorlar ilmiy-

¹⁶ Tadqiqotlarni o‘rganish natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik qilmayotgani innovatsion salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatmoqda). Ilmiy-tadqiqot muassasalari xizmatlarining yuqori narxi, axborot va aloqalarning yetarlicha rivojlanmagani, innovatsiyaga ehtiyoj sezilmasligi, bozor talablariga moslashishning past darajasi hamda hamkorlik jarayonlaridagi byurokratik to'siqlar buning asosiy sabablari bo'lishi mumkin.

Tahlil natijalariga ko'ra, moliyaviy resurslar yetishmasligi (54,2 foiz) eng ko'p qayd etilgan muammo bo'lib, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish asosan qarz moliyalashtirish (42,6 foiz bank kreditlari) va o'z mablag'lar (32,8 foiz) hisobiga amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlarga talab yuqori va barqaror (51,6 foiz) bo'lishi — innovatsiya ekotizimi rivoji uchun pozitiv signal. Bu holat ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiya jalb etish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun qulay iqtisodiy muhit mavjudligini anglatadi.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik faoliyatida yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida tadbirkorlik faoliyatida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda kreativlik va uning zamonaviy yo'nalishlari keltirilgan. Yuqori qo'shilgan qiymatli innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirilgan hamda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish prognoz senariylari va istiqbolli yo'nalishlari ishlab chiqilgan.


Bugungi kunda dunyoning “qashshoq” mamlakatlari iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi va sanoat sektorlari tashkil etsa, rivojlangan va “boy” sanalgan mamlakatlar aholisining katta qismi asosan xizmat ko'rsatish va kreativ iqtisodiyot sektorlarida band hamda iqtisodiyotda yaratilayotgan katta qiymat aynan xizmat ko'rsatish va kreativ iqtisodiyot sektorlariga to'g'ri keladi. UNESCO hisobotiga ko'ra, o'rta muddatli istiqbolda ushbu sektor global yalpi ichki mahsulotning 10 foizigacha o'sishi mumkinligi taxmin qilingan.

